

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№3

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNII	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNII	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELII	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEXANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOBİ: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI.....	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Diilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI.....	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR.....	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnoz Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiztdinovna	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI.....	224
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
<i>Амантурова Дилбара Кыдыкбековна</i>	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
<i>Асрарова М.У.</i>	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
<i>Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</i>	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEKANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
<i>Karimov Inomjon Ortikbaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
<i>Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich</i>	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
<i>Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINING ROLI	264
<i>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMI ORQALI RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH	270
<i>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ И СТРАХОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКИНГА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	275
<i>Бахтиёров Худайберган Хамдам угли</i>	
DOIMIY BO'LMAGAN KUCH TA'SIRIDA DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ MODEL ISHLAB CHIQRISH VA SONLI TAHLIL QILISH.....	282
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Isomova Sabohat Islom qizi</i>	
YOUTH ENTREPRENEURSHIP AS A FACTOR OF STRUCTURAL ECONOMIC TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN.....	290
<i>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</i>	
МОДЕЛИРОВАНИЕ САМОВОЗБУЖДЕНИЕ НЕЯВНОПОЛЮСНОГО СИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА ПРОДОЛЬНО-ПОПЕРЕЧНОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ	298
<i>Пирматов Нурали Бердиёрович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Бердиёров Улугбек Нурали угли, Бердиёров Улмасбек Нурали угли</i>	
YURTIMIZDAGI EKOLOGIK SOF YOG'OCH MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN ORAYOPMA KONSTRUKSIYALARINING CHO'ZILISHGA QARSHILIGI	305
<i>Yunusaliyev Elmurod Muhammadyaqubovich, Toshpulatov Ilhomjon Baxtiyorovich</i>	
AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI	311
<i>Aminov Hamza Husanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich, Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi</i>	
EXPLAINABLE AI YORDAMIDA SOC UCHUN TUSHUNTIRILADIGAN KIBERXAVF ANIQLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQRISH	318
<i>N.N. Jo'rayev, A.Sh. Juraboyev</i>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARINI SUV YORDAMIDA TOZALASH VA SOVITISH USULLARI TAHLILI	324
<i>Ibragimov Umidjon Hikmatullayevich, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Izomov Shahzod Niyoz o'g'li, To'yurodov Quvonchbek Sherzod o'g'li</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QURILISH SOHASIGA INTEGRATSIYASI: ILG'OR XALQARO TAJRIBA	332
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
ФАКТОРЫ НАЛОГОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОБИРАЕМОСТЬ НАЛОГОВ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	339
Хакимова Ситора Ильёсжон кизи, Муталова Дилором Махамаджановна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭКСПЕРТНОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	345
Л.А. Кадырова, Б. Н. Эгамов	
ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI	350
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MASALALARI	358
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
KONTEYNERLI TASHUVLARNING JORIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	366
Samatov G'affor Alloqulovich, Xolmatov Bekzod Nurmatovich, Toxirov Maxmudjon Murodjon o'g'li, Absattarov Isomiddin Xotam o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI BO'YICHA NOMUVOFIQLIKNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MEXANIZMI	381
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR	386
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliiddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
SIFATLI TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH VA AHOLIGA QAMROVNI TA'MINLASHDA BOSHQARUV QARORLARINING AHAMIYATI	391
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA GIPERPARAMETRLARNI MATEMATIK OPTIMALLASHTIRISH USULLARI	396
Husan Arziqulov Normurod o'g'li	
ENHANCING THE SERVICE SECTOR AS A MEANS OF CREATING EMPLOYMENT IN TOURISM INFRASTRUCTURE	401
Zarikeev Rasul Polatovich	
EXPANDING BANK CREDIT OPPORTUNITIES FOR FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	406
Isakov Janabay Yakipbaevich	
BANKS' BROKERAGE AND ADVISORY SERVICES IN FACILITATING SECURITIES TRANSACTIONS AND IMPROVING MARKET LIQUIDITY	412
Isakov Isobek Janabay uli	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ	416
Ибрагимов Мансур Ахметович	
ОПТИМИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ В УСЛОВИЯХ ПОСТРОЕНИЯ НОВЫХ ЦЕПЕЙ ПОСТАВОК	421
Маннапова Феруза Фахриддин кызы	
ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	428
Isroilov Obid Olimjonovich	
OZIQ-OVQAT BOZORI KON'YUNKTURASINI BAHOLASHDA KO'P OMILLI REGRESSIYA MODELINING SAMARADORLIGI	433
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	



OZIQ-OVQAT BOZORI KON'YUNKTURASINI BAHOLASHDA KO'P OMILLI REGRESSIYA MODELINING SAMARADORLIGI



Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich

University of business and science

Menejment kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.

E-mail: adick0377@gmail.com

ORCID: 0009-0002-5124-8949

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat bozori kon'yunkturasini baholashda mavjud usullar tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Xalqaro ekspertlar tomonidan 2008-yilda 39 ta va 2020-yilda 55 ta mamlakatda oziq-ovqat inqirozi e'lon qilingani globallashuvning salbiy oqibatlarini sifatida baholanmoqda.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat bozori, bozor kon'yunkturasini, talab va taklif, narx shakllanishi, iqtisodiy-statistik usullar, raqamlashtirish, bozordagi vaziyatni baholash, hududiy rivojlanish, axborot texnologiyalari, samaradorlikni oshirish.

Abstract. This article analyzes existing methods for assessing the conjuncture of the food market and develops scientifically grounded proposals to improve their effectiveness. According to international experts, the declaration of food crises in 39 countries in 2008 and in 55 countries in 2020 is considered one of the negative consequences of globalization.

Keywords: food market, market conjuncture, supply and demand, price formation, economic and statistical methods, digitalization, market situation assessment, regional development, information technologies, increasing efficiency.

Аннотация. В данной статье проанализированы существующие методы оценки конъюнктуры продовольственного рынка и разработаны научно обоснованные предложения по повышению их эффективности. Международные эксперты отмечают, что объявление продовольственного кризиса в 39 странах в 2008 году и в 55 странах в 2020 году рассматривается как одно из негативных последствий глобализации.

Ключевые слова: продовольственный рынок, рыночная конъюнктура, спрос и предложение, формирование цен, экономико-статистические методы, цифровизация, оценка рыночной ситуации, региональное развитие, информационные технологии, повышение эффективности.

KIRISH

Oziq-ovqat bozori kon'yunkturasini tahlil qilishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda iqtisodiy-matematik modellardan foydalanish hozirgi bosqichda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Statistik regressiya modellari, korrelyatsion tahlil, prognozlash algoritmlari hamda stsenariy tahlili kabi yondashuvlar bozordagi narxlar, ishlab chiqarish hajmi, talab va taklif o'zgarishlarini yanada aniqroq aniqlash imkonini beradi. Oziq-ovqat bozori mamlakat iqtisodiyotining strategik jihatdan muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi aholining oziq-ovqat xavfsizligi va farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur bozorda talab va taklif munosabatlarining o'zgarishi, narxlarning shakllanish mexanizmlari, shuningdek, kon'yunkturaning tezkor va aniq baholanishi iqtisodiy siyosatni samarali boshqarishda muhim omil hisoblanadi [1]. Oziq-ovqat

bozorining barqarorligi hamda uning samarali boshqarilishi mamlakat aholisining hayot darajasini yaxshilash, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda oziq-ovqat bozori kon'yunkturasini baholashda qo'llanilayotgan an'anaviy usullar, xususan statistik va iqtisodiy-matematik modellar, bozor jarayonlarini har doim ham to'liq aks ettira olmaydi. Ushbu usullar ko'pincha uzoq vaqt talab qiluvchi jarayonlarni o'z ichiga oladi va bozorning tez o'zgaruvchanligi hamda real vaqt rejimida tahlil olib borish zaruratlarini to'liq qondira olmaydi. Shu sababli mazkur usullarni yanada takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yechimlar asosida yangi metodik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Xalqaro tajribada oziq-ovqat bozorlarini baholash va monitoring qilishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Bu esa bozor holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi, narx shakllanishini prognoz qilish aniqligini oshiradi hamda bozorni boshqarish samaradorligini ta'minlaydi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash, katta hajmdagi axborotlarni tahlil qilish hamda tahlil natijalarini tezkor tarzda qaror qabul qilish jarayonlariga tatbiq etish imkoniyati kengaymoqda [3].

Mazkur tadqiqot doirasida oziq-ovqat bozori kon'yunkturasini baholashning mavjud usullarini chuqur tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bozorni boshqarish samaradorligini oshirish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish hamda zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv samaradorligini yuksaltirishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat bozori va uning kon'yunkturasini baholash bilan bog'liq nazariy hamda amaliy jihatlar iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Mazkur tadqiqot doirasida mavzuga oid quyidagi adabiyotlar chuqur tahlil qilindi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va bozor kon'yunkturasini tartibga solish masalalari Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda ham batafsil yoritilgan. Mazkur hujjatda oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar belgilab berilgan [4].

Usmonov K.R. o'zining "Методы экономико-статистического анализа рыночной конъюнктуры" nomli qo'llanmasida bozor kon'yunkturasini iqtisodiy-statistik usullar yordamida baholashga oid metodologik masalalarni batafsil yoritgan. Mazkur qo'llanma iqtisodiy-statistik usullarning bozor tahlilidagi o'rnini hamda ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi [5].

Food and Agriculture Organization tomonidan nashr etilgan The State of Food Security and Nutrition in the World 2022 hisobotida global oziq-ovqat bozori holati, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari hamda ularni bartaraf etish bo'yicha xalqaro tavsiyalar keltirilgan. Ushbu hisobot oziq-ovqat bozorini xalqaro kontekstda o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi [6].

Igor V. Lipsits ning Коммерческое ценообразование nomli asarida oziq-ovqat mahsulotlari narxining shakllanish jarayoni hamda bozordagi narxlar dinamikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy asosda tahlil qilingan. Ushbu asar narx shakllanishi jarayonini tushunish va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega [9].

Shishkin A.F. tomonidan yozilgan Статистические методы анализа рынка asarida bozor tahlilida qo'llaniladigan statistik usullar va modellar batafsil bayon etilgan. Ushbu kitobda bozorni baholash hamda prognozlash jarayonida statistik usullarni qo'llash metodologiyasi ilmiy jihatdan asoslangan [10].

World Bank Group tomonidan e'lon qilingan Global Economic Prospects hisobotida global iqtisodiy sharoitlarning oziq-ovqat bozorlariga ta'siri keng qamrovli tahlil qilingan. Ushbu hisobot xalqaro bozor tendensiyalarini tushunish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi [11].

Khalimova N.V. ning "Продовольственная безопасность и рыночные механизмы её обеспечения" nomli asarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bozor mexanizmlarining roli va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Ushbu manba oziq-ovqat xavfsizligi hamda bozordagi barqarorlik masalalarini kompleks o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi. Mazkur yondashuv kichik biznes subyektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik tahlil hamda ekspert baholash metodlari.

Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, kichik biznes subyektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari, shuningdek, ekspert so'rovlarini natijalari keng qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'p omilli regressiya modeli statistik tahlil vositasi bo'lib, u bir nechta mustaqil omillar bilan bitta natijaviy o'zgaruvchi o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Ushbu modelni shakllantirish jarayonida Y – oziq-ovqat mahsulotining o'rtacha narxi bilan mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi funksional bog'liqlik aniqlanadi.

Jumladan, mustaqil o'zgaruvchi omillar quyidagilardan iborat:

- X_1 – o'rtacha hosildorlik (t/ga);
- X_2 – o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari (so'm/kg);
- X_3 – logistika va transport xarajatlari (so'm/kg);
- X_4 – iqlim omillari (yillik yog'ingarchilik miqdori va harorat);
- X_5 – bozorga tushgan mahsulot hajmi (ming tonna);
- X_6 – iste'molchilar talabi darajasi (ming kishi).


Mazkur ko'rsatkichlar asosida natijaviy o'zgaruvchi bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi ko'rinishda ifodalanadi (1-formula).

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \beta_6 X_6 + \varepsilon \quad (1)$$

Bu yerda:

- β_0 – konstanta (oziq-ovqat narxining boshlang'ich qiymati);
- $\beta_1 \dots \beta_6$ – har bir omil bo'yicha regressiya koeffitsientlari (ya'ni narxga ta'sir darajasi);
- ε – tasodifiy xatolik (bozordagi kutilmagan tebranishlar va tashqi omillar ta'siri).

Namangan viloyati bo'yicha 2020–2023-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlarga asoslangan ko'p omilli regressiya tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga bir nechta omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Ko'p omilli regressiya modeli asosida Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari narxiga ta'sir etuvchi omillarning baholanishi

Ko'p omilli regressiya tahlili asosida hosildorlik omilining narxlarga ta'siri 0,25 regressiya koeffitsiyenti bilan ifodalanishi aniqlangan. Bu ko'rsatkich nisbatan past ko'rinishiga qaramay, u barqaror va izchil ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanishi mumkin. Mazkur qiymat shuni anglatadiki, hosildorlik bir birlikka oshganda mahsulot narxlarida o'rtacha 25 foizlik o'zgarish yuz berishi ehtimoli mavjud. Biroq bu bog'liqlik soddalashtirilgan emas, balki murakkab iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'lib, hosildorlikning qanday omillar hisobiga ortganiga qarab turlicha namoyon bo'ladi.

Birinchi holatda, agar hosildorlik intensiv texnologiyalar — kimyoviy o'g'itlar, zamonaviy texnika, yangi urug'liklar, tomchilatib sug'orish tizimi yoki yopiq issiqxonalar kabi usullar hisobiga oshgan bo'lsa, bu ishlab chiqarish tannarxining ortishiga olib keladi. Natijada ushbu qo'shimcha xarajatlar mahsulot narxiga ham ta'sir qiladi va iste'molchilar uchun narxlar arzonlashmasligi mumkin. Bunday sharoitda hosildorlikning oshishi

narxlarning pasayishiga emas, balki ayrim hollarda ularning ortishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, Namangan viloyatining ayrim tumanlarida, xususan Pop yoki To'raqo'rg'on hududlarida yuqori hosildorlik kuzatilgan bo'lsa-da, narxlarning sezilarli darajada pasaymaganligi kuzatilgan. Bu holat hosildorlikning iqtisodiy samaradorligini baholashda uning qanday omillar hisobiga shakllanganini aniqlash zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchi holatda esa hosildorlik tabiiy iqlim sharoitlari — mo'tadil harorat, yog'ingarchilikning optimal darajasi, unumdor tuproq va tabiiy suv manbalari ta'sirida oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi qo'shimcha xarajatsiz ortadi. Bu esa mahsulot tannarxining pasayishiga hamda bozor narxlarining pasayishi yoki barqarorlashuviga olib kelishi mumkin. Xususan, 2023-yilda Namangan viloyatining Chust va Mingbuloq tumanlarida piyoz, kartoshka va boshqa sabzavot mahsulotlari bo'yicha hosildorlik tabiiy omillar hisobiga oshgan bo'lib, bu mahsulotlar narxining pasayishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, kartoshkaning 2023-yildagi narx indeksi 0,30–0,60 oralig'ida shakllangan.

Ko'p omilli regressiya modeli asosida o'tkazilgan tahlilga ko'ra, ishlab chiqarish xarajatlari omilining regressiya koeffitsiyenti 0,05 ga teng bo'lib, bu uning narxlarga nisbatan juda past darajada ta'sir ko'rsatayotganini bildiradi. Boshqacha aytganda, xarajatlarda yuz berayotgan o'zgarishlar mahsulot narxlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmayapti. Bu holat dastlab iqtisodiy mantiqqa ziddek tuyulishi mumkin, chunki odatda xarajatlarning ortishi mahsulot narxining ham oshishiga olib keladi. Biroq amaliy tahlillar ushbu bog'liqlikning har doim ham to'g'ridan-to'g'ri namoyon bo'lmasligini ko'rsatmoqda.

Mazkur holat bir qator iqtisodiy va institutsional omillar bilan izohlanishi mumkin. Avvalo, bu davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Jumladan, urug'lik, yoqilg'i, o'g'itlar, texnika xizmatlari yoki suv ta'minoti bo'yicha qisman qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqaruvchilarning real xarajatlarini kamaytiradi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlari oshgan taqdirda ham mahsulot narxlarida keskin o'zgarish kuzatilmayligi mumkin.

Bundan tashqari, bozorda narxlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy mexanizmlar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, strategik ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ayrim tartibga solish mexanizmlarining mavjudligi narxlarning keskin tebranishlarini cheklashi mumkin. Bunday sharoitda narxlarning shakllanishi faqat xarajatlar dinamikasi bilan emas, balki boshqa institutsional omillar bilan ham belgilanadi.

Namangan viloyati oziq-ovqat bozorida narx shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida transport xarajatlari eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida ajralib turadi. Ko'p omilli regressiya modeli natijalariga ko'ra, transport xarajatlarining regressiya koeffitsiyenti 29,8 ni tashkil etadi. Bu esa transport xarajatlaridagi har bir birlik o'sish oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'rtacha 29,8 birlikka oshishiga olib kelishini anglatadi. Mazkur ko'rsatkich transport xarajatlarining narx shakllanishiga juda katta ta'sir ko'rsatayotganini bildiradi.

Birinchidan, Namangan viloyatining geografik joylashuvi hamda ayrim hududlarning infratuzilma holati transport xarajatlarining nisbatan yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, viloyatning Chortoq, Pop, Chust va Kosonsoy kabi tog' oldi hududlarida yetishtiriladigan meva-sabzavot mahsulotlari bozorlarga uzoq masofadan yetkazib beriladi. Bu mahsulotlar ko'pincha maxsus sovutish uskunalari bilan jihozlanmagan transport vositalarida tashiladi, natijada nafaqat transport xarajatlari, balki mahsulot sifatining yo'qolishi bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlar ham ortadi. Bundan tashqari, ayrim mavsumlarda yo'llarning texnik holati ham transport xarajatlarining oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham transport xarajatlarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Viloyatda zamonaviy logistika markazlari, mahsulotlarni qayta ishlash hamda sovutib saqlash infratuzilmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Ayniqsa go'sht, sut, sabzavot, poliz mahsulotlari va mevalarni sovutilgan holda tashish imkoniyatlarining cheklanganligi mahsulotlarning yo'qotilishiga hamda narxlarning oshishiga olib keladi. Shu sababli ishlab chiqaruvchilar logistika masalalarini ko'pincha mustaqil hal qilishga majbur bo'ladilar, bu esa kichik ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlarning ortishiga sabab bo'ladi.

Uchinchidan, transport xarajatlari tarkibida yonilg'i narxlarining o'zgarishi ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, so'nggi yillarda benzin va dizel yoqilg'ilari narxlarining o'zgaruvchanligi yuk tashish xarajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlarini tashishda asosan avtomobil transportidan foydalanilishi ushbu omilning ahamiyatini yanada oshiradi. Natijada logistika zanjiridagi xarajatlarning ortishi yakuniy iste'mol narxlariga ham ta'sir qiladi.

Transport xarajatlarining yuqori bo'lishi Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. Bu holat nafaqat narxlarning oshishiga sabab bo'ladi, balki kichik fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklarining raqobatbardoshligiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish hamda bozor kon'yunkturasini samarali boshqarish uchun transport va logistika tizimini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, viloyat ichidagi asosiy yo'llarni rekonstruksiya qilish, logistika markazlari va sovutkichli omborlar barpo etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sovutilgan holda tashish tizimini rivojlantirish, shuningdek, mahsulot harakatini nazorat qilishning raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali transport



xarajatlarini kamaytirish mumkin. Logistika infratuzilmasining takomillashuvi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta'minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif ko'rsatkichi, ya'ni regressiya modelida hisoblangan koeffitsiyent 1,1 ga teng bo'lib, bu uni eng muhim va kuchli omillardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Mazkur koeffitsiyentning iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, bozordagi mahsulot taklifining har bir foizga oshishi mahsulot narxining o'rtacha 1,1 birlikka kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu iqtisodiyotdagi klassik tamoyillardan biri — "taklif oshgan sari narx pasayadi" degan qonuniyatni ifodalaydi. Biroq real bozor sharoitida ushbu qonuniyat turli iqtisodiy, logistik va institutsional omillar ta'sirida murakkab tarzda namoyon bo'ladi.

Taklifning o'sishi mahsulotning bozor narxiga bevosita bosim o'tkazishi mumkin. Masalan, kartoshka, sabzi va karam kabi mahsulotlar narxining 2022-yil davomida pasayishi kuzatilgan. Biroq regressiya modeli natijalari narx pasayishi taklif o'sishiga to'liq mutanosib bo'lmaganini ko'rsatadi. Ya'ni sabzavot ishlab chiqarish hajmi 18,2 foizga oshgan bo'lsa-da, narxlar shu darajada pasaymagan. Buning asosiy sabablari qatorida logistik to'siqlar, yetkazib berishdagi kechikishlar hamda saqlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillarni keltirish mumkin. O'z vaqtida bozorga yetkazib berilmagan yoki tez buziladigan mahsulotlarning realizatsiya qilinmay qolishi hamda yo'qotilishi narxlarning sezilarli darajada pasayishiga to'sqinlik qilgan.

Shu sababli regressiya modelida taklif koeffitsiyentining 1,1 darajasida bo'lishi real bozor sharoitida taklif narxga kuchli ta'sir ko'rsatayotganini bildiradi, biroq bu ta'sir amalda har doim ham to'liq namoyon bo'lmashligi mumkin. Ayniqsa, mahsulotlarni uzoq muddat saqlash imkoniyatlarining cheklanganligi hamda sovutkichli ombor infratuzilmasining yetarli emasligi sababli mahsulotlar tez realizatsiya qilinishi zarur bo'ladi. Agar mahsulotlar o'z vaqtida sotilmasa, ular bozordagi ortiqcha bosim omiliga aylanmasdan, yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, taklifning oshishi har doim ham narx pasayishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmashligi mumkin. Masalan, agar taklif sifatsiz yoki past sifatli mahsulotlar hisobiga oshgan bo'lsa, iste'molchilar sifatli mahsulotlarga bo'lgan talabni saqlab qoladilar. Natijada statistik jihatdan taklif ortgan bo'lsa ham, bozor taklifi — ya'ni real raqobatbardosh mahsulotlar hajmi — kamaygan bo'lishi mumkin. Namangan viloyatida ayrim sabzavot mahsulotlari bo'yicha shunga o'xshash holatlar kuzatilgan. Ba'zi hududlarda ortiqcha hosil bilan birga sifat muammolari ham yuzaga kelganligi sababli narxlar kutilgan darajada pasaymagan.

Taklif o'sishining yana bir muhim jihati uning mavsumiy xususiyatidir. Sabzavot va poliz mahsulotlarining aksariyati yoz va kuz oylarida katta hajmda yetishtiriladi. Natijada qisqa vaqt ichida ortiqcha taklif yuzaga keladi. Bunday davrlarda narxlar pasayishi mumkin, biroq mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, qisqa muddat ichida mahsulotlarning bir qismi yo'qotilishi mumkin. Bu esa taklifdan olinadigan real iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan regressiya modelidagi 1,1 koeffitsiyent qisqa muddatli narx tebranishlariga yuqori sezuvchanlik mavjudligini ko'rsatadi. Biroq ushbu ta'sirni uzoq muddat davomida barqaror saqlash uchun mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Model natijalari shuni ham ko'rsatadiki, taklif omili narx bilan salbiy korrelyatsiya orqali bozor muvozanatini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Biroq ushbu muvozanat mexanizmi samarali ishlashi uchun bozor infratuzilmasi, axborot tizimlari, logistika imkoniyatlari hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yetarli darajada rivojlangan bo'lishi zarur. Aks holda ortiqcha taklif narxlarning pasayishiga emas, balki mahsulotlarning yo'qotilishiga, chiqindilar hajmining ortishiga va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy zarar ko'rishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-36-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6802687>
2. Усманов К.Р. Методы экономико-статистического анализа рыночной конъюнктуры: учебное пособие. – Ташкент: Iqtisod-Moliya, 2019. – 256 с.
3. Food and Agriculture Organization (FAO). The State of Food Security and Nutrition in the World 2022. – Rome: FAO, 2022.
4. Липсиц И.В. Коммерческое ценообразование. – Москва: Инфра-М, 2017. – 376 с.
5. Шишкин А.Ф. Статистические методы анализа рынка. – Москва: Юнити-Дана, 2019. – 280 с.
6. World Bank Group. Global Economic Prospects. – Washington D.C.: World Bank, 2022. Havola: <https://www.worldbank.org/gep>
7. Бойко И.П. Анализ и прогнозирование рынка продовольствия. – Москва: Экономика, 2020. – 344 с.
8. Халимова Н.В. Продовольственная безопасность и рыночные механизмы её обеспечения. – Санкт-Петербург: Лань, 2021. – 224 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100